

MAQSUD SHAYXZODA SO'NGI KUNLAR

Qoryog'diyev Jo'rabek Bobir o'g'li

(Toshkent davlat transport universiteti talabasi)

**Annotatsiya:** *Maqsud Shayxzoda hayotining so'ngi kunlari kimlar bilan uchrashgani haqida, u bilan uchrashgan insonlar bilan suhbat.*

**Abstrakt:** *About who met the last days of the life of Maqsud Shaykhzoda, a conversation with people with whom he met.*

**Аннотация:** *О том, с кем встречался Мақсуд Шейхзаде в последние дни его жизни, беседы с людьми, с которыми он встречался.*

**Kalit so'zlar:** *Mehmon, hol-ahvol, domla, Sakinaxonim, Shayxzoda, Alisher Navoiy, Yashin aka, shifokor, Xiyobon, pashshalar, mulla, bemor, she'rlar to'plami, Yozuvchilar uyushmasi.*

**Keywords:** *Guest, resident, domla, Sakinakhanim, Shaykhzoda, Alisher Navoi, Yashin aka, Doctor, Alley, flies, Mullah, patient, poetry collection, Writers Association.*

**Ключевые слова:** *Гость, состояние, домла, Сакинаханим, шейхзада, Алишер Навои, брат Яшин, врач, Аллея, мухи, мулла, пациент, сборник стихов, Союз писателей.*

Yanvar oyining boshlarida Suyimaxon Shayxzodani rafiqasi bilan uyiga taklif etdi. Aziz mehmonni qanday kutish ilmini yaxshi bilgan xonim chiroyli dasturxon yozdi. Shoir yoqtirgan noz ne'matlardan qo'ydi. Mehmonlar kelib, hol-ahvol so'rashdilar va bir piyola choy ham ichdilar. Suyimaxon oshxonaga chiqib, suyuq taomni suzish niyatida kuymaklanib yurgan edi, Sakinaxonim kirib qoldi. - Suyimaxon, ko'p ovora bo'lmang. Biz uzoq o'ltirmaymiz. Domlangizning ahvoli yaxshimas. "Chiqib ayt, ko'p bezovta bo'lmasin", - deyapti domlangiz.

Sakinaxonim shunday dedi-yu, ko'zlaridan beixtiyor yosh quyilib keldi. Suyimaxonning o'zi ham ma'yuslanib qolgan bo'lsa-da, o'zini yig'ib olib, Sakinaxonimga taskin berishga tushdi. So'ng ikki ayol Shayxzodaning huzuriga hech qanday noxush hol ro'y bermagandek, kulib chiqib keldilar. Shayxzoda mezbon olib kelgan taomdan ozgina totingach, yangi she'rlaridan birini, so'ngra Samad Vurg'undan qilgan tarjimasini o'qib berdi. Suyimaxon yaqinda o'z tarjimasida nashrdan chiqqan "Kalila va Dimna" qissasi bilan birga "Alisher Navoiy" risolasini ustozga sovg'a qildi. Shayxzoda bu kitoblar evaziga o'zining yaqinda bosmadan chiqajak "Xiyobon" she'rlar to'plamini sovg'a qilajagini va



shu to'plamda Suyimaxonga bag'ishlangan she'rlar ham, albatta, bo'lajagini aytib, ketishga ijozat so'radi.

1967 yil 9 fevral. Yozuvchilar uyushmasi raisi Komil Yashin “O‘zbekiston madaniyati” (hozirgi O‘zbekiston adabiyoti va san’ati) gazetasi muharriri Laziz Qayumov bilan birga xasta shoirni ko‘rgani boradilar. Afsuski, Laziz Qayumov shoirning so‘nggi kunlari haqida “telegraf uslubi”da ma’lumot berib, bunday so‘zlarnigina yozgan: “Dardi og‘ir bo‘lsa keragu, ammo hech zorlanmadi. Yashin aka: “Moskvadan doktor chaqiraylikmi?” – deb so‘rasa: “Yo‘q, doktor yaxshi, malakasi baland-u, ammo bemorning yuragi zaif”, - dedi”. Yana shu xotiranasining so‘zlaridan ma’lum bo‘lishicha, Shayxzoda doktorlar yozib bergan dorilarni “Ichim dorixonona bo‘lib ketdi”, deb ichmas ekan. Sakinaxonimning shu haqdagi ta’nalarini eshitgan Yashin aka Shayxzodaga qarab: “Xotinlarning gaplariga kirish kerak. Sakinaxon nafaqat sizning vafodor rafiqangiz, balki kiroyi shifokor ham. Dori darmonlarning foydali ekanini siz bilan menga qaraganda yaxshi biladi”, - dedi. Shunda xasta shoir Yashinning so‘zlariga javoban bunday javob beradi: - Mulla Nu‘mon o‘g‘illari, mashoyixlarning aytishlaricha, qadim zamonda bir odam yashagan ekan. U menga o‘xshab xasta bo‘lgani uchunmi yoki boshqa biror sabab bilanmi, har holda to‘shakda yotganida pashsha kelaverib, uni talayverib tinkasini quritipti. Shunda boyagi odam pashshalarning birini o‘ldirib, birini quvavergan ekan, pashshalarning podshosi shu odamning ustidan xudoga arz qilibdi. Xudo adolatparvar emasmi, pashshalarning yonini olib, boyagi odamga: “Seni ham, pashshani ham men yaratganman. Sening pashsha haydashga hech qanday haqing yo‘q. Bundan keyin bunday noma’qul ishni aslo qila ko‘rma”, - deb buyruq beribdi. Shunda boyagi odam osmonga qarab ikki qo‘lini ochib, debdi: “Ey qudratli Parvardigor, sen yetti iqlimda yashayotgan odamzodni ham, jonzodni ham yaratgansan. Ularga o‘z hukmingni o‘tkazasan. Agar men bitta xira pashshaga so‘zimni o‘tkaza olmasam, unda meni yaratib nima qilarding?” – degan ekan. Shunga o‘xshab men ham o‘z so‘zimni aqalli xotinimga o‘tkaza olmasam, Parvardigor meni yaratib nima ham qilardi. Shayxzoda hatto og‘ir xastalik paytida ham birodarlarining gina-kuduratlariga shunday hazil-mutoyiba bilan javob bera oladigan iroda sohibi edi.



ADABIYOTLAR:

1. Bobirovich, Q. D. J. R. (2023). MAQSUD SHAYXZODA VA ABADIYATGA DAHLDORLIK. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).

2. Islomovna, M. F. (2024). O ‘ZBEK ADABIYOTINING ATOQLI NAMOYANDALARIDAN BIRI MAQSUD SHAYXZODNING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” ASARI. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(1), 89-92.

3. Islamovna, M. F. (2024, January). MAQSUD SHAYKHZADEH-TWO FOLK DILBANDI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 1, pp. 189-92).

4. Mamurova, F. (2023). MAQSUD SHAYXZODANING ADABIY MEROSI. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(11), 9-11.

